



THE ROLE OF OBJECTS OF CULTURAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN

Mamurjon Foziljonovich Rasulov

associate professor (PhD)

Fergana State University

Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: cultural heritage, restoration and conservation, tourism, architecture, soft power, tower.

Received: 02.10.24

Accepted: 04.10.24

Published: 06.10.24

Abstract: The article examines the use of objects of cultural heritage of Uzbekistan, in particular of tourism. The importance of cultural heritage objects in the preparation of tourist routes of the republic is shown. At the same time, the article analyzes some of the nuances of using objects of cultural heritage in the field of tourism.

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OB‘YEKTLARINING O‘RNI

Ma'murjon Foziljonovich Rasulov

dozent(PhD)

Farg‘ona davlat universiteti

O‘zbekiston, Farg‘ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: madaniy meros, restavratsiya va koxservatsiya, sayyohlik, me‘morchilik, mayin kuch, minora.

Annotatsiya: Maqolada sayyohlik sohasi misolida O‘zbekistonda madaniy meros obyektlaridan foydalanish masalasi ko‘rib chiqiladi. Respublikaning sayyohlik yo‘nalishlarini ochishda madaniy meros obyektlarining ahamiyati ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, maqolada sayyohlik sohasida madaniy merosdan foydalanishning ayrim muammolari tahlil qilinadi.

РОЛЬ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Маъмуржон Фозилжонович Расулов

доцент(PhD)

Ферганский государственный университет

Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: культурное наследие, реставрация и консервация, туризм, архитектура, мягкая сила, минарет.

Аннотация: В статье на примере туристической сферы рассмотрен вопрос использования объектов культурного наследия Узбекистана. Показано значение объектов культурного наследия в составлении туристических маршрутов республики. Вместе с тем, в статье проанализированы некоторые нюансы использования объектов культурного наследия в сфере туризма.

KIRISH

O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yillikda madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish hamda ulardan foydalanish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Respublika hududida saqlanib qolgan tarixiy madaniy meros obyektlari (me‘moriy inshootlar, arxeologiya obyektlari va boshqalar)ni saqlash, muhofaza qilish, ulardan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda hamda madaniy-ma‘rifiy maqsadlarda foydalanish borasida turli ilmiy yondashuvlar vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, “Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan [1.].

ASOSIY QISM

O‘zbekiston insoniyat tarixining beshiklaridan biri hisoblanadi. Mamlakat Teshiktosh, Selungur, Obirahmat, Afrosiyob, Varaxsha kabi insoniyatning eng qadimgi manzilgohlari; Kushon, Qadimgi Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d, Qang‘ kabi ko‘hna davlatchilik an‘analari mavjud bo‘lgan hudud hisoblanadi. Tarixdan ma‘lumki, bu hududda aniq (ayniqsa, matematika va astronomiya), tabiiy (geografiya, biologiya, kimyo, tibbiyot, dorishunoslik va boshqalar), ijtimoiy-gumanitar (falsafa, siyosatshunoslik, psixologiya, pedagogika, axloqshunoslik va boshqalar), islom ta‘limoti (fiqhshunoslik, hadisshunoslik, kalom ilmi, tasavvuf) kabi fan sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan va dunyo sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan ko‘plab qomusiy allomalar yashagan.

Xalifa Usmon topshirig‘iga binoan kiyik terisiga bitilgan muqaddas Qur‘on kitobi (“Usmon mushafi”); yurtimizda tug‘ilib o‘sgan allomalarning ilm-fan sohasidagi erishgan yutuqlari; Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlar faoliyati dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. Bu holat O‘zbekistonda xalqaro va ichki turizm industriyasini rivojlantirishda katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Respublikadagi madaniy meros obyektlari xalqaro va ichki turizmni rivojlantirishning asosiy lokomotivi hisoblanadi. Hozirgi kunda Respublikada 8210 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 2266 tasi me‘morchilik, 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 678 tasi mahobatli san‘at obyektlari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir [2.]. Shuningdek, 4000 dan ortiq madaniy meros yodgorliklari YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular alohida muhofazani talab etadi. Ushbu madaniy meros yodgorliklar noyobligi, jozibadorligi, milliy mentalitet va qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

Yuqoridagi holatlarni e‘tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatda turizm industriyasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va ushbu sohada aniq dastur asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublika Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida belgilandi. Mamlakat rahbarining 2017-yil 16-avgustdagi qarori bilan 2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. 2018-yilning fevral oyida e‘lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 6-fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 6-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 16-aprelda Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirdagi “Turizm to‘g‘risida”[5.] qonun qabul qilindi.

2018-yil 10-fevraldan boshlab Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Turkiya va Isroildan kelayotgan sayyohlarga mamlakatda 30 kungacha vizasiz bo‘lishga ruxsat berildi. Bundan tashqari, 39 mamlakat fuqarolariga viza berish tartibi soddalashtirildi. 2019-yil 1-fevraldan boshlab 45 ta mamlakat fuqarolari uchun O‘zbekistonga kirgan kundan e‘tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz tartib belgilandi, fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxati kengaytirildi (tasdiqlangan ro‘yxatda 76 ta davlat bor – R.M.). 2019-yil 15-martdan boshlab esa, elektron kirish vizalarining yangi turlari paydo bo‘ldi, ular “oddiy” elektron vizalardan bir qancha qulayliklari bilan ajralib turadi [6.].

Yuqorida keltirib o‘tilgan huquqiy hujjatlarning amaliy samarasi hozirgi kunda o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Masalan, oxirgi besh yilda O‘zbekistonga kelgan sayyohlar oqimi 72 foizga o‘sgan.

2017-yilda O‘zbekistonga 2,7 mln nafar sayyoh kelgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 1,9 barobarga o‘shirildi, 5,2 mlndi tashkil qildi [7.]. 2023-yilda esa 7 mln nafarga yaqin chet el fuqarosi sayyohlik maqsadlarda keldi. Ularning mamlakatda qolish muddati o‘rtacha to‘rt kungacha uzaydi, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko‘p ekanligini ko‘rsatadi [8.].

Mamlakatda sayyohlik sohasidagi islohotlar chet el ommaviy-axborot vositalarida ham o‘z aksini topmoqda. 2018-yilning yozida AQShning dunyoga mashhur “Lonely Planet” jurnali “Osiyodagi sayohat uchun eng maqbul joylar reytingi”ni e‘lon qildi. O‘zbekiston ilk bor mazkur ro‘yxatga kiritilib, Janubiy Koreyadan keyin ikkinchi o‘rinni egalladi. Mamlakat o‘zining jozibadorligi bo‘yicha Vetnam, Yaponiya, Tailand, Nepal, Shri-Lanka, Xitoy va Indoneziya singari davlatlardan yuqoriroq pog‘onada qayd etildi [9.]. Jurnal saytida Kanadaning “G Adventures” sayyohlik kompaniyasi ekspertlari fikri asosida 2019-yilda eng ommabop bo‘ladigan 10 ta sayyohlik yo‘nalish e‘lon qilindi. O‘ntalikda birinchi pog‘onani Yaponiya, ikkinchi pog‘onani esa O‘zbekiston egalladi. Buyuk Britaniyaning nufuzli “The Telegraph” gazetasida e‘lon qilingan “2019-yilda borish lozim bo‘lgan 10 ta mamlakat” ro‘yxatida O‘zbekiston birinchi o‘rindan joy olgan [10.]. Avstraliyaning “Skyscanner” axborot portali ekspertlari “Instagram” ijtimoiy tarmog‘idan foydalanuvchilar uchun sayyoramizning eng go‘zal joylari reytingini bergan. Yer yuzidagi 15 ta eng ajoyib shahar kiritilgan ro‘yxatning oltinchi pog‘onasida o‘zining tarixiy durdonalari, qadimiy obidalari, ulug‘ allomalari va mutafakkirlari bilan dunyoga tanilgan – Samarqand shahri o‘rin olgan [11.].

Mamlakatda turizm sohasida amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlarni nafaqat O‘zbekiston xalqi, ommaviy-axborot vositalari, balki xorij ilm ahli, respublikaga tashrif buyurgan alohida sayyohlar ham qo‘llab-quvvatlamodalar hamda o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Jumladan, Fransiyada chop etiladigan nufuzli “La Revue” jurnalida taniqli olim, Temuriylar tarixi va san‘atini o‘rganish uyushmasi prezidenti Frederik Bopertyui-Bressanning “O‘zbekona mayin kuch” (“La Soft Power Ouzbek”) nomli maqolasi e‘lon qilindi. Maqolada quyidagicha fikr bildiriladi: “O‘zbekiston o‘zining diplomatik faoliyati hamda madaniy ta‘sirini jadal kengaytirishga intilmoqda. Xalqaro amaliyotda bunday siyosat “mayin kuch” (“soft power”) deb yuritiladi. Shu paytgacha mazkur mexanizm mamlakatga xalqaro hamjamiyatning e‘tiborini tortish va uning jahon maydonidagi obro‘cini mustahkamlash yo‘lida qo‘llanilmas edi. Ammo, bugungi kunda O‘zbekiston rahbariyati “soft power” imkoniyatlaridan keng foydalanmoqdaki, bu mintaqaning boshqa mamlakatlari uchun ham o‘rnak bo‘lishi mumkin” [3. – B. 594.].

Respublika qadimiy shaharlaridagi tarixiy-me‘moriy yodgorliklar xorijlik sayyohlar va mehmonlarda katta qiziqish va taassurotlar qoldirmoqda. Masalan, “Biz Markaziy Osiyo madaniyatiga qiziqib kelganmiz. Maqsadimiz tarixiy yodgorliklar va obidalar bilan yaqindan tanishish. Biz ularni tomosha qilib, qoyil qoldik. Bu yerda o‘tmishdan qolgan bebaho

yodgorliklarni saqlash va ta'mirlashga juda katta ishlar qilinayotgan ekan", – deb yozadi germaniyalik olim Wolfgang Shlotman Kayts [12.].

“Men Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent shaharlarida bo‘ldim, bu shaharlardagi qadimiy me'moriy obidalarning o‘zi bir dunyo. Ko‘hna Sharqning bor qudrati va ulug‘vorligini aks ettirgan bu osmono‘par, naqshinkor minoralar qarshisida, shu yurt kishilari, ajdodlarining aql-zakovati, bilimi, qay darajada yaratuvchanlik kuchiga ega ekanligining shohidi bo‘lasan kishi”, – deb ta'riflaydi fransiyalik muhandis Julyen Barte [12.].

Xitoyning nufuzli “South China Morning Post” gazetasi jurnalistlarining fikricha, o‘zbek zamini chinakam arxitektura ixlosmandlari e'tiborini jalb qila oladi. Ulkan minoralar va masjidlar o‘zining go‘zalligi bilan kishini hayratga soladi hamda go‘yo tarixga qaytib, o‘tmishni yorqin tasavvur qilish imkonini beradi [13.].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan dalillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlarning aksariyat qismi mamlakatimizdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarga, me'moriy obidalarga e'tibor qaratmoqdalar. Bu, o‘z navbatida, viloyatlarda saqlanib qolgan me'moriy obidalarini ta'mirlash-tiklash, ularning qurilish tarixini, qanday maqsadlarda foydalanilganligini, inshootlarda aks etgan milliy me'morchilik an'alarini ilmiy asoslab berish va bu hududlarga yangi sayyohlik yo‘nalishlar ochishni taqozo etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari o‘zining iqtisodiy, intellektual va madaniy-ma'rifiy salohiyati, milliy qadriyatlarini, an'alarini, fauna va florasini jahon xalqlariga namoyish qilishda sayyohlikdan keng foydalanmoqdalar. Sayyohlik ushbu mamlakatlarning tarixiy-madaniy merosini ko‘z-ko‘z qilish barobarida, kattagina daromad manbai ham hisoblanadi. Sayyohlik rivojlangan joylarda xizmat ko‘rsatish sohalari ham parallel ravishda rivojlanadi va milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tarixiy-madaniy yodgorliklardan sayyohlik sohasida foydalanish borasida erishilgan yutuqlar bilan birga, talaygina muammolar ham ko‘zga tashlandi. Jumladan, sayyohlarni jalb qilishda ayrim viloyatlar ijobiy natijalarga erisha olmayati. Sababi, ko‘plab me'moriy obidalar ilmiy asosda tadqiq etilib, yakuniy xulosaga kelinmagan, ular joylashgan hududlar xaritasi tuzilmagan, sayyohlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin bo‘lgan ayrim tarixiy-madaniy yodgorliklarga sayyohlik yo‘nalishlari ochilmagan. Bundan tashqari, tarixiy madaniy meros obyektlar hududlarida xalqaro meyorlarga javob beradigan sayyohlik infratuzilmasi yaratilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада

такомиллаштириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2014. 21 июль. 200-сон. www.lex.uz; Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармойиши. Алоҳида муҳим ижтимоий, маданий ва тарихий аҳамиятга эга бўлган объектларни қуриш, реставрация, реконструкция қилиш ва мукамал таъмирлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2018. 10 сентябрь. Ф-5361-сон. www.lex.uz; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. 2018. 28 ноябрь. ПҚ-4038-сон. www.lex.uz; Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2018. 19 декабрь. ПҚ-4068-сон. www.lex.uz.

2. <https://madaniymeros.uz/>

3. Расулов М. Қўқон шаҳрида ички ва халқаро сайёҳликни ривожлантиришда меъморий обидаларининг ўрни. “Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари” республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган. 2020. – 424 б.

4. Мухторов Н. Маданий мерос объектларига эътибор янада кучаяди // <http://parliament.gov.uz>. 2018. 24 декабрь.

5. <https://lex.uz/docs/-4428097>

6. Замонов О. Ўзбекистонга хуш келибсиз: мамлакатимиз виза тизими соддалаштирилмоқда // <https://www.norma.uz>.

7. <https://kun.uz/93697579?q=%2Fuz%2F93697579>

8. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/#:~:text=2023%2Dyilda%20O%27zbekistonga%20el%20fuqarosi%20turistik%20maqsadlarda%20keldi>.

9. Махсумов С. “Lonely Planet” рейтингида Ўзбекистон иккинчи ўринни эгаллади // Халқ сўзи. 2018. 20 ноябрь. № 239.

10. Ўзбекистон – 2019 йилда бориш лозим бўлган 10 та мамлакатдан бири // Халқ сўзи. 2019. 7 февраль. № 26.

11. Самарқанд – Ер юзидаги 15 та энг гўзал шаҳарлар рўйхатида // Халқ сўзи. 2018. 27 март.

12. Бойтуллаев Р. Меъморий обидалар – маънавий бойлигимиз // Мулоқот. 2004. № 3. – Б. 41-42.

13. Мирзаев А. Ўзбекистон Осиёнинг энг тез ўсиб бораётган туризм йўналишига айланди // Халқ сўзи. 2018. 7 ноябрь. № 230.